



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 11-may, payshanba,
56 (23.777)-son

**KUN
HIKMATI**

Quloq eshitganini
avval shuorda qayta
ishlaydi, keyin
ko'zda va keyin tilda
izhor qiladi

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident saylovi kampaniyasi boshlandi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2023-yil 8-maydagi farmoniga ko'ra,
2023-yil 9-iyul kuni muddatidan ilgari
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti say-
lovi o'tkaziladi.**

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 66-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlagan taqdirda, saylov Saylov kodeksiga to'liq muvofiq holda ikki oy ichida o'tkazilishi belgilangan.

Markaziy saylov komissiyasining kecha o'tkazilgan majlisida 2023-yil 10-maydan O'zbekiston Prezidenti saylovi kampaniyasi boshlangani ma'lum qilindi.

Shuningdek, saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish bo'yicha kalendar rejasi tasdiqlandi.

Unga ko'ra, 15-mayga qadar saylov okrugi, 25-maygacha saylov uchastkalari tuziladi. Siyosiy partiyalar saylovda ishtirok etish uchun 15-maygacha hujjatlarni taqdim etishlari zarur. 17-may — 1-iyun oralig'ida prezidentlikka nomzodlar ko'rsatiladi.

9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Samarqand shahridagi Xotira maydonida viloyat hokimligi, harbiylar, huquq-tartibot idoralari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, mehnat faxriylari, yoshlar, keng jamoatchilik vakillari jam bo'ldi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi Motamsaro ona haykali poyiga gul qo'yilib, bugungi tinch va osuda kunlar uchun jonini fido qilganlar xotirasi yodga olindi.

Urushda qatnashib, jon fido qilgan qahramonlarimiz xotirlanib, ularning nomi abadiylashtirilyapti, - deydi mehnat faxriysi Salohiddin Bobomurodov. — Xotira va qadrlash kuni oldidan urush qatnashchilari va mehnat faxriylari xonadonlariga yo'qlovlar uyushtirilib, ularga yana bir karra izzat-ikrom ko'rsatildi. Davlatimizning urush faxriylariga bo'lgan bu e'tibor va g'amxo'rligi ularni mamnun qilyapti.

Insoniyat uchun katta azob-uqubatlarga sabab bo'lgan Ikkinchi jahon urushida 152 mingdan ortiq samarqandliklar ishtirok etgan. Ularning 73 ming nafari ona yurtga qaytish baxtidan mosuvo bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining farmoni asosida viloyatda umrguzaronlik qilayotgan 10 nafar Ikkinchi jahon urushi ishtirokchisiga bir martalik pul mukofoti, Prezident tabrigi yetkazildi va qimmatbaho sovg'alar tantanali tarzda topshirildi. Shuningdek,



INSON XOTIRA BILAN TIRIK, QADR BILAN ULUG'

frontorti mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining oila a'zolariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi.

Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Urush qatnashchilari va frontorti mehnat faxriylari holidan xabar olinib, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatildi.

**S.MARDIYEV,
B.MUSTANOV (surat).**

KONSTITUTSIYA YANGILANDI, HECH NARSA O'ZGARMAYDIMI?

Bu haqda so'raganlarga nega "yo'q" deb javob berayotganim xususida

Xotira va qadrlash kunida kuzatganman, azbaroyi hamma borayotgani uchun qabristonga boradiganlar bor. Ammo menda sal boshqacharoq, har yili bu ishni o'tganlarni yo'qlash, ularni to'g'ri ma'noda eslash uchun boraman. Va har safar u yerga o'g'illarimni ham olib boraman. Otam, katta otam, u kishining otalari va momolarimning jismi ko'milgan yerlarni qurigan o't-o'lanlardan tozalaymiz. Qaytishda bolalarimga ular bilan bog'liq xotiralar xaqida so'zlab beraman.

- Ha, endi konstitutsiya yangilandi, nima o'zgaradi? - bu galgi shirin xotiralar va ajoyib suhbatimizni yo'l chetida to'dalashib turgan kishilardan birining savoli buzib yubordi.

- Yo'q, hech narsa o'zgarmaydi, - dedim gapni qisqa qilib.

- Iye, nega, 9-iyulda Prezident saylovi bo'ladi, deyaпти-ku, seni ziyoli, tushungan bola desam, hech vaqodan xabaring yo'qqa o'xshaydi?! Hech bo'lmasa, ko'chalar asfalt bo'ladi, deb qo'ysang ham mayli edi.

Davlat rahbarini saylash uchun ikki oy ichida yana bir siyosiy jarayon boshlanayotganidan xabarim borligini aytib o'tirmadim. Zotan, unga amaldagi prezidentning vakolat muddati tugaganligini, ammo bu tashabbus aynan birinchi rahbarning o'zidan chiqqanligini gapirib berishga hojat yo'q, deb hisobladim. Bundan ko'zlangan birinchi maqsad Konstitutsiyani tezda amalga joriy qilish ekanligini baribir tushunmaydi, deb o'yladim.

Ammo keyinroq Asosiy qonun bu shunchaki hujjat, unda belgilangan tamoyillarning amalga oshirilishi, shu kishiga, qolaversa, menga va butun jamiyat a'zolariga bog'liq ekanligiga to'xtalmaganimga afsuslandim.

"MEM" LAR YOKI AVVAL TUSHUNTIRAYLIK

Rost, hamma vaqt biror voqeelikka avval tanqidiy ko'z bilan qarashga odatlanganman. Hamkasblarimning tanqidiy chiqishlari yoki ijtimoiy tarmoqlardagi negativlarga qo'shimmasam-da, qarshi bo'lmaganman. Lekin Bosh qomus yangilangan shu kunlarda bunday qilish kamida noinsofik,

deb hisoblayman.

Afsuski, bugungi jarayonlar, kechayotgan siyosiy islohotlar haqida turli bo'lar-bo'lmas gaplar har daqiqa kuzatilmoqda. Ammo o'shalardan fikrini so'rang, ak-sariyati Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlarni to'liq aytib berolmasligi tayin. Chunki yangiliklar chindan ko'p, ularning mohiyati, hayotiy ahamiyati haqida katta-katta kitoblar yozish mumkin. Modomiki, shunday bo'lmaganida davlat rahbari Konstitutsiyaga sharh yozish, buning uchun keng ilmiy jamoatchilikni jalb qilish, sharh oddiy, xalqchil tilda, barchaga tushunarli bo'lishi kerakligi haqida alohida hujjat imzolamagan bo'lardi.

Yana bir tomoni shundaki, yangilangan huquqiy maydon shunchaki rasmiyatchilik yoki faqat siyosiy maqsadlarga mo'ljallangan bo'lganida ham bunday yo'l tutilgan bo'lmasdi. Insof bilan aytib, agar shunaqa bo'lganda ularga erishildi-ku, Asosiy qonunga kiritilgan o'zgartishlarni tushuntirib o'tirishga hojat yo'q-ku?!

Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Bu yangilik bir qarashda sizga yoki menga qizig'i, aloqasi yo'qdek. Chunki endi hukumatni shakllantirish, uning faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish masalalari Qonunchilik palatasining vakolatiga o'tkazildi. Rost-da, kimdir vazir bo'lishi biz uchun odatda ahamiyatsiz.

Hududlar bilan bog'liq masalalarni hal qilish, joylarda, ayniqsa, mahallalarda qonunlarning ijrosini ta'minlashga yo'naltirilishiga esa aminmanki, befarq

bo'lmaysiz. Mazkur vazifa Senat faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida belgilandi.

Bu borada davlat rahbari ham alohida to'xtalib, «Endi ular pastga tushib, ko'proq odamlarimiz bilan uchrashib, ularning muammolarini eshitsu, vazirlar va hokimlar bilan birgalikda har bir masala bo'yicha aniq yechimlarni topsa, bundan umumiy ishimizga faqat foyda bo'ladi», dedi.

HUQUQLAR KO'P, TALAB QILISHGA IMKON HAM ...

Biror-bir mansabdorning xatti-harakatlaridan norizo bo'lasiz, u noqonuniy qaror qabul qilganiga ishonchingiz komil, biroq indamay ketishga majbur bo'lgansiz. Hayotda bunday voqeeliklarni ko'p uchratamiz, ammo unga deyarli yechim yo'q. Chunki noqonuniy qaror faqat sud orqali bekor qilinadi, boshqa instansiyalar orqali yillab vaqt ketishi mumkin. Ammo arz qiluvchi sudga ham borolmaydi. Sababi, sudya ishni ko'rib chiqishi uchun belgilangan tartibda davlat boji to'lanishi kerak.

Endi bunday bo'lmaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi uchun kafolatlar yanada kuchaytirildi. Unga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan ma'muriy sudlarga shikoyat qilishda fuqaro va tadbirkorlik subyektlaridan davlat boji undirilmay belgilandi.

Masalaning muhim tomoni shundaki, ishni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha aybdor tarafdan davlat boji undiriladi. Demak, sudga murojaat qilishga va to'lov to'lmaslikka yo'llar ochiq, ammo aybdor bo'laturib adolat istasangiz, davlat boji sizning gardaningizga tushadi.

Yana bir gap, joriy yil 1-avgustdan boshlab soliq to'lovchilar tomonidan yoshidan qat'i nazar, farzandlarining O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishlari uchun yo'naltiriladigan to'lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritilyapti.

Bugunning gapi

Aytmoqchi bo'lganimiz, agar mulohaza qilib ko'rsilsa, yangilangan Asosiy qonunimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini nafaqat ta'minlash, buning kafolati uchun qator normalar belgilandi. Davlat rahbarining ta'biri bilan aytganda "yangilangan Konstitutsiyamizning ma'no-mazmuni, bosh maqsadi ham xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib shart-sharoit yaratib berishdan iboratdir".

Shu bois eslab qoling, joriy yil 1-iyulgacha o'zbek va xorijiy tillarda "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi" yagona milliy portali va uning mobil ilovasi ishga tushiriladi.

Portal va uning mobil ilovasi-da fuqaro va tadbirkorlar uchun qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish hamda uni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish imkoniyati bo'ladi.

HAMMASI O'ZINGIZ VA O'ZIMIZGA BOG'LIQ

Davlat rahbari "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" farmon imzoladi. Biroq yuqorida keltirilganidek, Konstitutsiya yangi tahrirda qabul qilingani siz-u bizga hech narsa bermasligi mumkin. Ya'ni, hech qanday o'zgarishga sabab bo'lmaydi. U shunchaki vosita, xolos. Ammo unga to'g'ri yondashsak, munosabatlarimizni o'zgartirsak, u farovon kelajagimiz kafolati bo'lishi shubhasiz.

Chunki yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llaniladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmagani vaji bilan qo'llashni rad etish qat'iyon taqiqlanadi.

Agar shuni ham bilmasak, hech narsa o'zgarmaydi.

Y.MARQAYEV.

Xitoyning Changsha shahrida Butunjahon turistik shaharlar federatsiyasi (WTCF)ning navbatdagi sammiti o'z ishini boshladi. Unda dunyoning 83 davlatidan 159 sayyohlik shahri vakillari ishtirok etmoqda. Jumladan, viloyat hokimi o'rinsbosari — turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi boshlig'i Rustam Qobilov Samarqand shahri vakili sifatida sammitda qatnashdi.

Butunjahon turistik shaharlar federatsiyasi sammitida Samarqand taqdimoti



Boshqarma axborot xizmatining ma'lum qilishicha, R.Qobilov sammitda Samarqandning turizm salohiyati, bu yerda sayyohlar uchun yaratilgan imkoniyat va qulayliklar haqida taqdimot qildi. Shuningdek, tadbir doirasida boshqarma boshlig'i ishtirokida matbuot anjumani o'tkazildi.

Sammit qatnashchilari Samarqandda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, sayyohlar uchun yaratilayotgan qulayliklarga katta qiziqish bilan qaramoqda, - deydi R.Qobilov. — Xitoyliklar ham biz bilan ush-

bu sohada hamkorlik qilishdan manfaatdor ekanligini bildirdi. Sammitda qatnashayotgan turistik shaharlar rahbarlarini yurtimizga taklif qildik, o'zaro hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishdik.

WTCF 2012-yilda dunyoning mashhur turistik shaharlari va tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan bo'lib, shaharlarga asoslangan birinchi xalqaro turizm tashkiloti hisoblanadi. Samarqand ilk bor 2018-yilda WTCF sammitida mehmon sifatida ishtirok etdi va shundan so'ng tashkilot a'zolariga qabul qilingan.



DIYORA JAHON CHEMPIONATI KUMUSH MEDALI SOHIBASI

Doxa shahri mezbonlik qilayotgan dzyudo bo'yicha jahon chempionatida Diyora Keldiyorova kumush medalni qo'lga kiritdi. Hamyurtimiz finalda yaponiyalik amaldagi jahon va Olimpiadalar chempioni Uta Abega imkoniyatni boy berdi.

Bu Keldiyorovaning kattalar o'rtasidagi jahon chempionatlarida qo'lga kiritgan ilk medali hisoblanadi. Shu bilan birga, u jahon va Parij-2024 Olimpiadasi uchun ham qimmatli reyting ochkoni o'z hisobiga yozib qo'ydi.



UY-JOYLAR BILAN TA'MINLASHDAGI IMTIYOZLAR

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi uchun sifatli va zamonaviy uy-joylar qurish hamda aholini turarjoy bilan ta'minlash dolzarb vazifa sifatida qo'yilmoqda. Uy-joylar qurilishi natijasida o'z shaxsiy xonadoniga ega bo'lish xalqimizda azaldan qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Bunda uy-joyga shunchaki ko'chmas mulk yoki vaqtinchalik boshpana emas, balki Vatan ichidagi mo'jaz vatan sifatida munosabatda bo'linadi. Shu bois ham yurtimizdagi har bir oila moddiy sharoiti, ijtimoiy ahvoli va darajasidan qat'i nazar, o'z shaxsiy uyiga ega bo'lishni istaydi.

Davlatimiz rahbari yaqinda o'tkazilgan yig'ilishda mazkur yo'nalishdagi eng dolzarb bo'lgan va ko'plab oilalarni qiynab kelayotgan asosiy muammolardan biri bo'lgan budjet sohasi xodimlari hamda kam ta'minlangan oilalarning uy-joy muammosiga yanada e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi. Shundan so'ng 2023-yil 13-aprelda ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash, jismoniy shaxslarga ipoteka krediti berishning zamonaviy va barqaror tizimini shakllantirish, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan oilalarni davlat tomonidan manzilli qo'llab-quvvatlash, mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni jalb qilish va keyinchalik ularni ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo'naltirish maqsadida Prezidentimizning "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonda, aholining barcha qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash va bu borada ularning tanlash imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Farmon doirasida bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashning amaldagi tartibiga 2023-yil 1-maydan boshlab yangi tartib-taomillar kiritildi.

Unga ko'ra, banklarga rasmiy daromadga ega bo'lmagan shaxslarga ipoteka kreditini ajratishda ularning to'lov qobiliyatini aniqlashning muqobil usullaridan foydalanishga, shu jumladan, qarz oluvchilarning bank kartasi aylanmasi, ijara, kommunal va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlarini inobatga oluvchi skoring tizimini joriy qilishga ruxsat etildi.

Shuningdek, banklarga qarz oluvchi tomonidan to'langan dastlabki badal miqdori, imtiyozli davr muddati va boshqa ko'rsatkichlardan kelib chiqib, subsidiyasiz ajratiladigan ipoteka kreditlari bo'yicha tabaqalashtirilgan foiz stavkalarini o'rnatish huquqi berildi.

Professional ta'lim tashkilotlarining muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalaridagi maxsus fanlar bo'yicha dars berayotgan yoki o'quv amaliyotini o'tkazayotgan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'lim ustalariga imtiyozli shartlarda subsidiya xabarnomalarini berish tartibi joriy etildi.

Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun olinadigan ipoteka kreditlari bo'yicha berilgan subsidiya taqdim etish to'g'risidagi xabarnomalarning amal qilish muddati 4 oy etib belgilandi.

Joriy yil uchun ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiyalar ajratishga doir arizalar tasdiqlangan parametrlar doirasida 2023-yil 1-maydan 2023-yil 1-dekabr gacha qadar qabul qilinadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga "Xalqparvar" komissiyalarining axborotiga asosan xato ajratilgan, deb topilgan subsidiya xabarnomalarini dasturiy ta'minotdan to'g'ridan-to'g'ri bekor qilish va to'lovlarni to'xtatish huquqi berildi.

Darvoqe, eng muhim qulayliklardan biri Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga mahalliy budjet daromadlarining oshirib berilgan qismi hisobidan ushbu farmon bilan tegishli hudud uchun belgilangan ipoteka kreditlari va subsidiyalar sonini oshirishga ruxsat berilishidir.

Shu kabi, joriy yil 1-maydan boshlab qurilayotgan ko'p kvartirali uy-joylarning qurilishi yakunlangan qismini (qavatlarini) banklar tomonidan kredit ta'minoti sifatida bosqichma-bosqich garovga olish amaliyoti joriy etilishi ham yangi tartiblardan biri hisoblanadi.

Bahodir QARSHIYEV,
viloyat hokimligi yuridik xizmati bosh yuristkonsulti.

Joriy yil 23-mart kuni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Jinoyat-ijroiya kodeksiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, Jinoyat kodeksi 73-moddasiga ko'ra, mahkum og'ir jinoyati, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishi imkonligi belgilandi.

Bundan tashqari, endilikda og'ir jinoyati uchun jazoning uchdan ikki qismini, o'ta og'ir jinoyati uchun to'rtinchi qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin jazoni o'tashdan muddatidan ilgari

Mahkumlarga oid qonunchilikda o'zgarishlar bor

shartli ozod qilish qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 114-moddasiga ko'ra, mahkumlarining buyumlar saqlashlari, pul va qimmatli buyumlar saqlashlari, puldan cheklanmagan holda foydalanishlari mumkinligi qoidasi kiritildi.

Mazkur moddada "Mahkumlar cheklanmagan miqdorda qisqa muddatli uchrashuvlar, yil mobaynida yigirma to'rt marta uzoq muddatli uchrashuvlar olish huquqiga ega"ligi belgilandi. Uchrashuvlar, qoida tariqasida ishdan bo'sh vaqtda

beriladi. Manzil-koloniya hududida uzoq muddatli uchrashuv o'tkazish imkoniyati bo'lmasa, uchrashuv mahkumning arizasiga binoan manzil-koloniya hududidan tashqarida, ushbu koloniya joylashgan tuman (shahar) hududida o'tkazilishi mumkin"ligi qoidasi bilan to'ldirildi. To'rtinchi qismiga "Manzil-koloniya hududidan tashqarida yashash huquqi Jinoyat kodeksi 73-moddasi to'rtinchi qismining "v" va "g" bandlarida ko'rsatilgan mahkumlarga berilmaydi" bandi kiritildi. Kodeks "Saqlash rejimini

ashaddiy buzganlik oqibatlarini", deb nomlangan 112-1-moddada bilan to'ldirildi va saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilgan mahkumlarga nisbatan sudga taqdimnoma kiritilishi belgilandi.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 105-moddasiga ko'ra, mahkumga qo'llanilishi mumkin bo'lgan intizomiy choralar yana bittaga ko'paydi va "navbatdagi uchrashuvdan mahrum qilish" intizomiy chorasini belgilandi.

Aytish mumkinki, mahkumlarining huquqlari kengaytirilganligi - ularning shaxs sifatida e'zozlanishi, majburiyatlarini oshganligi esa - tayinlangan jazodan tegishli xulosa qilish va o'zini isloh qilishda mas'uliyatni his qilishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

A.SHOMURODOV,
Samarqand shahar prokurori yordamchisi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashida mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish yuzasidan respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi g'oliblari taqdirlandi.

Xavfsiz mehnatni tashkil etganlar rag'batlantirildi

Viloyatda faoliyat olib borayotgan mingga yaqin mehnat jamoalari ishtirok etgan mazkur tanlovda mehnatni muhofaza qilishda eng yaxshi natijalarga erishgan, xodimlarga sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratgan va ularning mehnat muhofazasiga bo'lgan huquqlarini himoya qilishda faollik qilgan eng yaxshi kasaba uyushma tashkilotlari aniqlandi. Shuningdek, mehnat muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda tashkilotchilik qilgan eng yaxshi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillari ham ma'lum bo'ldi.

Tanlovda "Eng yaxshi tashkilot", "Eng yaxshi kasaba uyushmasi qo'mitasi" hamda "Eng yaxshi mehnat muhofazasi bo'yicha vakil" nominatsiyalari bo'yicha "Samarqand magistrat gaz quvurlari" boshqarmasi g'olibligini egallagan bo'lsa, Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashining boshlang'ich tashkilotlaridan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi viloyat boshqarmasi "Eng yaxshi kasaba uyushmasi qo'mitasi" deb topildi.

"Eng yaxshi tashkilot" nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'rinni Payariq tumani tibbiyot birlashmasi egalladi.

G'oliblar ko'rik-tanlovning respublika bosqichida ishtirok etadi.



1-maydan 30-mayga qadar viloyat ichki ishlar organlarida ana shu shior ostida «Ma'naviyat oyli» o'tkazilmoqda.

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish - oliy burchimiz!



g'a xizmat qiladigan, milliy qadriyatlariga sodiq, yot va buzg'unchi g'oyalarga murossasiz kurashuvchi, ajdodlarimiz va mardlik ko'rsatib halok bo'lgan xodimlarning merosiga tayanib yashaydigan shaxs kabi sifatlarini namoyish etadi.

Oylik davomida xodimlarning ma'naviyat rify salohiyati, umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma'naviy qiyofasini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas'uliyat hislarini mustahkamlashga e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, oylik davomida ichki ishlar organlari xodimlari har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga



MAGNIT bo'ronlari nima?

Uning yer yuziga qanday ta'siri bor?

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda joriy yilning 1-11-may kunlari Quyosh yuzasida sodir bo'layotgan portlashlar tufayli yer yuzini magnit to'liqlari qoplab olishi haqidagi ma'lumotlar ko'payib qoldi. Uning salbiy ta'siri surunkali kasalligi bo'lgan bemorlar, keksalar, hattoki, radio-telefon aloqalariga ham borligi ko'pchilikni hayron qoldirmoqda. Nahotki, ko'zga ko'rinmas galaktika nurlari insoniyatga shu qadar zarar keltirsa? Quyosh energiyasiga bo'lgan sezgirlik, avvalo, inson tanasidagi o'zgarishlar, aniqrog'i, markaziy asab tizimini ishdan chiqarishi haqida gaplar ko'pchilikni qo'rqitmay qo'ymaydi.

- Geomagnet bo'ronlar - bu quyosh shamoli zarballi to'liqini yoki magnit bulutining ta'siri natijasida Yer magnitosferasining vaqtinchalik buzilishi hisoblanadi, - deydi Samarqand davlat universiteti huzuridagi muhandislik fizikasi instituti direktori o'rinbosari Zavqiddin Mirtoshev. - Magnit bo'ronlari quyosh shamolining o'zgarishi natijasida yuzaga kelib, Yer magnitosferasidagi oqimlar, plazmalar va maydonlarda katta o'zgarishlarga olib keladi. Eng katta geomagnit bo'ronlar Quyoshdan muntazam ravishda otilib chiqib turadigan bir necha milliard tonna magnitlangan plazmaning ulkan bulutlari bilan bog'liq. Ular odatda Yerga bir necha kunda yetib kelishi mumkin, lekin ayrim kuchli bo'ronlarning 18 soat ichida yetib kelishi kuzatilgan.

Bo'ronlarni yuqori tezlikdagi Quyosh shamoli oqimi ham keltirib chiqaradi. Ular oldindagi sekinroq oqimga kirib borib, birgalikda aylanadigan o'zaro ta'sir hududlarini yaratadi.

- Geomagnet bo'ronlari sun'iy yo'ldoshlar va Yerdagi ulkan aloqa va elektr energiya uzatish tizimlariga, shuningdek, inson hayoti va sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavfli kosmik ob-havo hodisalarini keltirib chiqaradi, - deydi Z.Mirtoshev. - Biz hozir nanoelektronika va kosmik texnologiyalar asrida yashar ekanimiz, kosmik ob-havo monitoringini va ularni oldindan bashorat qilish usullarini ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi. Dunyo bo'ylab ob-havoni bashorat qilishning bir qator kosmik dasturlari mavjud.

SamDU muhandislik fizikasi instituti yadro fizikasi va astronomiya kafedrasida ham kosmik ob-havo va geomagnit bo'ronlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Hozirgi kunda 2021-2023-yillarga mo'ljallangan "Koronal massa tashlanmalarining kosmik ob-havoga ta'siri" mavzusidagi O'zbekiston-Hindiston qo'shma ilmiy loyihasi doirasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xo'sh, yuqori ultrabinafsha nurlar salomatlik uchun nimasi bilan xavfli bo'ladi? Undan qanday himoyalani kerak?

Gelio sezgirlik bu organizmning, asosan, markaziy asab va yurak-qon tomir tizimining o'sha magnit bo'ronlariga nisbatan turli darajadagi quvvat reaksiyasidir. Ushbu reaksiya tufayli tanada qon bosimi, harorat o'zgaradi.

- Bu faqat kasal organizmning reaksiyasi ekanligini aytadigan aniq ma'lumotlar yo'q, - deydi Samarqand davlat tibbiyot universiteti professori, tibbiyot fanlari doktori Saydulla Rasulov. - Kuzatishlarga ko'ra, yuqoridagi meteo va gelio sharoitlarga reaksiyalar irsiy va ko'p jihatdan asab tizimining holatiga bog'liq bo'lishi mumkin. Mutlaqo sog'lom odamlar meteo va gelio sharoitlarining salbiy ta'siriga duchor bo'lmaydi. Bunday paytda Quyosh nuri keltirib chiqaradigan o'zgarishlardan ehtiyot bo'lish lozim. Jumladan, terining quyosh nuriga sezgirlik oshishi natijasida ham kasallik paydo bo'lishi mumkin. Ayniqsa, allergik kasalliklar tufayli ko'krak, bo'yin, qo'lda turli toshmalar yuzaga keladi. Shuningdek, ko'zning shilliq pardasiga ultrabinafsha nurlarining ta'siri shohpardaning yallig'lanishiga olib kelishi mumkin.

Mutaxassislarning tavsiyasiga ko'ra, yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'irgan bemorlarning holatida keskin yomon holat kuzatilsa, zudlik bilan shifokor bilan maslahatlashish, "tez yordam" chaqirish kerak. Magnit bo'ronlari sog'lig'ingiz bilan bog'liq barcha muammolarni ko'rsatib beradi. Bo'ronlar paytida ko'proq suv ichish, meva-sabzavot iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Nurlanish yuqori bo'lganda ochiq havoda uzoq vaqt yurish saraton kasalligiga moyillikni oshirib, immunitetni pasaytiradi. Bunday kunlarda kunduzi quyosh nurlari ostida uzoq vaqt yurmaslik, bosh kiyim kiyish yoki soyabon tutish, ko'zoynak taqish tavsiya etiladi. **Dilmurod TO'XTAYEV.**

Akademik litsey o'quvchilarining uchdan ikki qismi muddatidan oldin o'qishga kirdi

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi 720 o'ringa mo'ljallangan.

O'quv binosida kimyo, fizika, biologiya, kompyuter sinflari, faollar zali, sport zali mavjud. Litseyda o'quv xonalari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan.

Hozirgi kunda akademik litseyda 350 ga yaqin o'quvchi tahsil olmoqda. O'quvchilarning 190 nafari mahalliy, 68 nafari xorijiy oliy ta'lim muassasalariga muddatidan oldin o'qishga qabul qilindi.

O'quv dargohida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida "Rektor stipendiyasi" hamda "Akademik litsey iftixori" stipendiyalari joriy qilingan. 2022-yil davomida akademik litsey o'quvchilarining 96 nafari

chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikatlarni qo'lga kiritdi. O'quvchilar uchun musiqa, sport, axborot texnologiyalari kabi bir qancha to'garaklar tashkil etilgan.

Akademik litseyda ingliz, rus, nemis, koreys, xitoy, yapon hamda arab tillari chuqurlashtirilib o'rgatiladi. Xorijiy til mashg'ulotlari maxsus sertifikatga ega bo'lgan respublika hamda xorijlik yuqori malakali o'qituvchilar tomonidan olib boriladi.

2020-2021-o'quv yilida 73 foiz, 2021-2022-o'quv yilida esa 86 foiz bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan. Kelajakda o'qishga kirish ko'rsatkichini 95 foizga yetkazishni reja qilganmiz.

Zokir BOZOROV,
SamDCHTI akademik litseyi ijrochi direktori.

Sport nafaqat salomatlikni mustahkamlash, balki ijtimoiy hayotda ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda yurtimizda sportning turli yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan ko'plab sport federatsiyalari va uyushmalari bo'lsa-da, biroq ularni boshqarishda muammolar bor. Jumladan, sport tashkilotlarini yagona muvofiqlashtiruvchi markazning yo'qligi va uyushmalarning to'laqonli ishlashi uchun mablag' yetishmasligi asosiy masala hisoblanadi.

Bugungi kunda hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab sport federatsiyalari va assotsiatsiyalari tadbir o'tkazishda mablag' yo'qligidan qiyonlashedi. Bu esa chekka-chekka qishloqlardagi iqtidorli yoshlarni topish, ularning sport bilan shug'ullanishlariga sharoit yaratishda muammolar tug'diradi. Chunki yurtimizda ularni samarali boshqaradigan yagona muvofiqlashtiruvchi markaz va sportni rivojlantirishning umumiy strategiyasi yo'qligi sababli harakatlarning takrorlanishiga, moliyaviy resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelmoqda. Shuningdek, keng ko'lami ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun sport tashkilotlari boshqaruvini muvofiqlashtiruvchi mexanizm ishlab chiqilishi va ularni budjetdan moliyalashtirishni ko'paytirish va xususiy investorlarni jalb etish kerak.

Bugun muvaffaqiyatga erishishning asosiy tamoyillaridan biri imij, ya'ni, obro'-e'tiborga ega bo'lish hisoblanadi. Jumladan, sportda ham bu muhim o'rin tutadi. Xo'sh, aynan shu sifat orqali mamlakat nufuzini oshirish yoki muammolarni bartaraf etish mumkinmi?

Albatta, mumkin. Sportchilarimiz erishgan yutuqlarning yetarli darajada namoyon etilishi har qanday davlatning obro'si oshishiga xizmat qiladi. Bu ish bilan xorijda maxsus sport menejerlari shug'ullanishadi. Ular sportchilarni tanlash, kuchli murabbiy topish,

Yurtimizda sport menejerlari tayyorlash ishlari boshlanganiga endi 4 yil bo'ldi. Bu borada xorij tajribasi asosida bir qator maxsus markazlar o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan. Yaxshi boshqaruvchi, ya'ni, sport menejeri bo'lish boshqa sohalaridagi boshqaruvdan farq qiladi. Sport menejmenti bir vaqtning



SPORTNI RIVOJLANTIRISH UCHUN NIMA QILISH KERAK?

muntazam mashg'ulotlar o'tkazish, turli musobaqalar tashkil etish, hududlardan jamoalar chaqirish kabi masalalar bilan shug'ullanishadi.

Sport rivojlangan davlatlarda sportchilar jamiyatda tan olinishi, yuqori darajadagi mavqe va moddiy rag'batlanishga erishish uchun harakat qiladi. Shu bilan birga, sevimli ishi bilan mashg'ul bo'ladi. Buning uchun unga zamonaviy sport menejerlari yordam beradi. Bu borada bizda ham ko'zga ko'rinadigan yutuqlar erishilmoqda.

o'zida turli boshqaruv usullaridan foydalanadi.

Ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat va dam olish, sport-ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham ayrim muassasalarda ilmiy tadqiqot o'tkazishga to'g'ri keldi. So'rovnomadani joylarda o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, fuqarolarning jismoniy tarbiya va sportga jalb qilinish darajasi

Tahlil va taklif

to'g'risida jamoatchilik fikri, jismoniy dam olishning ahamiyati haqidagi savollar o'rin oldi. 200 nafar o'quvchi-talaba va katta yoshli shaxslardan iborat respondentlar ishtirok etgan so'rovnoma javoblari tahlil qilinganda, ularning 85 foizi sportning futbol, kurash kabi turlari ahamiyatga egaligi, o'quvchi yoshlar ta'lim muassasalarida an'anaviy o'tkaziladigan "Salomatlik kunlari" muhimligini ta'kidlashgan.

Respondentlarning 22 foizi oyiga bir marta, muntazam sport bilan shug'ullanuvchilarning 8 foizi haftasiga 2-3 marta jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish zarurligini aytishgan.

Haftada bir marta sport bilan shug'ullanuvchi respondentlarning 14 foizi jismoniy tarbiya va dam olishni birgalikda qo'shib olib borish kerak, degan fikrga kelishgan. So'ralganlarning 40 foizi sport tadbirlarida faol qatnashish lozimligini bildirgan. Achinarlisi, 70 foiz respondentlar faol harakatni emas, balki musobaqalarni televizor orqali tomosha qilishni yoki faqat muxlis sifatida qatnashishni ma'qul ko'rgan.

So'rovnomada ishtirok etganlarning 39 foizi sport bilan shug'ullanish uchun vaqti yetishmasligini bildirgan bo'lsa, 30 foizi imkoniyati yo'qligini, 23 foizi esa qiziqishi yo'qligini ta'kidlagan. 20 foiz respondentlar o'yingohga kirish chiptalari narxi yuqoriligidan ishora qilgan. Nima bo'lganda ham ularning aksariyati muntazam jismoniy tarbiya va sportni farovonlik omili sifatida tan olgan. Biroq katta yoshdagi aholi orasida sport tadbirlariga qiziqish ancha past ekanligi ma'lum bo'ldi.

Umid RAJABOV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistranti.

Yertutni vertikal o'stirishmoqchi

Samarqand shahrida "Mirzo Ulug'bek vorislari" respublika tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. 2022-yildan beri o'tkazib kelinayotgan ushbu tanlovga 2 mingdan ziyod yoshlar qatnashish istagini bildirib, onlayn ariza bilan murojaat qildi. Tanlovining viloyat bosqichida 80 nafar yoshlar o'z ilmiy loyihalari bilan qatnashdi.

- Bu tanlovda asosan startap loyihalar ko'rilyapti, - deydi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Alisher Norboyev. - Loyihaning innovatsion yangiligi mukammalligi, kutilayotgan natijasiga qarab baholanyapti.

Tanlovda yertutni vertikal yo'nalishda o'stirish texnologiyasi taqdim etildi. - Mening loyiham qishloq xo'jaligi ekinlari va sabzavotlarini vertikal holda yetishtirish, - deydi Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali magistri Boursburh Omonov. - Loyihaning ahamiyati shundaki, ko'p qavatli xonadonlarga, ofis, binolarga dekorativ bezak berish, qolaversa, ro'z'orda bemaol o'zlarini yetishtirib, iste'mol qiladigan darajada tarmoq tizimini ishlab chiqishga bel bog'laganmi.

16-25 yosh toifasidagi tanlov ishtirokchilari mini texnologiyalar, robototexnika, dasturlash, innovatsiya xizmatlari, qishloq xo'jaligi va biotexnologiyalar yo'nalishida o'z loyihalari taqdim etishdi va munosib deb topilgan 20 nafar loyiha mualliflari tanlovining respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

G'oliblar pul mukofoti, diplom va sovg'alar bilan taqdirlandi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiy lashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'OLON QILINADI

Obyekt nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdogacha chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
Bo'sh turgan yordamchi binolar (hammom, sport zal)	Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani, "Yakkabog" MFY, Dayravot ko'chasi, 1576-uy.	1,9976	1 232,58	1 794 900 000,0	05.06.2023 y.	05.06.2023 y.

Auksionda qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu ob'yektlarni "E-JURO AUKSION" yagona elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qoshidagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish markazi" DUKning "e-auksion.uz" sayti maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolar qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazi yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektni tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda

ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolagan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini turgan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiriladi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar, taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilaridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar, tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion

ishtirokchilarning birortasi tomonidan tasdiqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayonnomani avtomatik tarzda shakllantirgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolar qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarni muvofiqlashtirish bo'limi.

Ma'lumot uchun telefonlar: 66-233-96-64, 99-447-17-70

Faks: 66-233-73-54

"Facebook"dagi rasmiy sahifa: Sam Dav Aktiv

Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz

Internet tarmoq'idagi veb-sayt: samarqand@davaktiv.uz

TA'SISCHILAR DIQQATIGA!

Past Darg'om tumanidagi "ULUG'BEK ICHTB" MCHJ ta'sischilarining 2022-yil yakuniga bag'ishlangan navbatdagi umumiy yig'ilishi 2023-yil 30-may kuni soat 10:00 da Past Darg'om tuman "Balxiyon" MFY, Samarqand shohko'chasi, 22-uyda o'tkaziladi.

KUN TARTIBIDAGI MASALALAR:

- Jamiyat direktorining 2022-yil yakuni bo'yicha hisoboti;
- Taftish komissiyasining 2022-yil yakuni bo'yicha hisoboti va taftish komissiyasining yangi tarkibini saylash;
- 2022-yil yakuni bo'yicha auditorlik tekshiruv xulosasini tasdiqlash;
- 2022-yil yakuni bo'yicha jamiyat buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar hisobotini tasdiqlash hamda olingan so'f foydani taqsimlash masalasi;
- 2023-yil uchun jamiyat auditorini tasdiqlash va unga to'lanadigan haq miqdorini belgilash;

- 2023-yilga mo'ljallangan jamiyat "Biznes reja"sini tasdiqlash;
 - Jamiyat direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bir yil muddatga uzaytirish yoki bekor qilish masalasi ko'rib chiqish;
 - Jamiyat ta'sischilarining tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida;
 - Boshqa masalalar.
- Jamiyat ta'sischilari 2022-yil yakuni bo'yicha kerakli ma'lumotlarni jamiyat buxgalteriyasidan olishlari mumkin.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

ABITURIYENTLAR DIQQATIGA!



SAMARQAND XALQARO TEKNOLOGIYA UNIVERSITETI HUJJATLAR QABULINI BOSHLADI

Hujjatlarni www.siut.uz sayti orqali topshirishingiz mumkin. Siz o'rta ta'limni bitirganlik haqidagi hujjatlarni olguningizga qadar o'zingiz tahsil olayotgan muassasaning (maktab, kollej yoki litsey) bitiruvchisi ekanligingizni tasdiqlovchi ma'lumotnomani tizimga yuklashingiz mumkin.

MUHANDISLIK:

- "Geologiya va geomuhandislik";
- "Konchilik ishi";
- "Kimyo muhandisligi";
- "Neft va gaz muhandisligi";
- "Axborot texnologiyalari".

TADBIRKORLIK:

- "Tadbirkorlik va menejment";
- "Xalqaro logistika".

XITOI ENERGETIKA INSTITUTI:

- "Issiqlik energetikasi" (Xitoy oliy ta'lim dasturlari asosida).

KOREYA TEKNOLOGIYASI VA MADANIYATI KOLLEJI:

- "Yashil texnologiyalar" (qayta tiklanadigan energiya manbalari);
- "Dizayn";
- "Raqamli iqtisodiyot".

TA'LIM INGLIZ TILIDA OLIB BORILADI

+99855-705-50-05, +99897-575-48-29

Telegram (http://t.me/siut_uz) **Facebook** (<https://facebook.com/siut.uz>)
Instagram (<https://instagram.com/siut.uz>) **Sayt** (<http://www.siut.uz/>)

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Gulyamov Sharifga (2019-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-"J" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida

marhum Iskandarov Ermat Alimkulovichga (2020-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Raximova Komila Faxriyeva notarial idorasida marhum Sharafova Olga Alekseevna (2022-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Raximova Komila Faxriyeva notarial idorasiga

murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasida marhum Oblakulov Raxmonkulga (2014-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

TUZATISH KIRITILADI

"Zarafshon" gazetasi 2023-yil 9-may 54-55-soni 4-sahifasida "Institutimiz faxri" sarlavhasi bilan Afg'on urushi qatnashchisi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi va oliy ta'lim a'lochisi, Samarqand xalqaro texnologiya universiteti rektori Yusuf Abdullayev haqida maqola chop etilgandi.

Maqoladagi "Institutimiz faxri" sarlavhasi "Universitetimiz faxri" deb o'qilsin.

Sohaning ikki zabardast shaxsi uchrashganda va atrofda qalam tebratib yurgan insonlar suhbatni in-tiqlik bilan kuzatib turgan bir paytda uchrashuvning asl mohiyati o'z qimmatini yo'qotar ekan. Ikki xizmat ko'rsatgan jurnalist o'z faoliyatini ochiq va achchiq tahlil eta boshlaganda, ortiqcha gap-so'z qo'shishning ham imkoni bo'lmaskan.

Hayotni puxta bilgan maqolani puxta yozadi



- Jurnalist yozgan maqolasi-ga faqat aql emas, yurak bilan yondashish kerak, aks holda, hammasi bekor. Men qayerga bormayin, sohani aql bilan tahlil qildim, maqolani esa yurak qo'rim bilan yozdim. Maqolani bo'lib yozish eng noto'g'ri ish, deb o'ylayman. Har qanday maqola bir o'tirishda yozilishi kerak.

- Shunday, buning uchun esa jurnalist professional bo'lishi lozim. Professional jurnalist borgan hududidagi yutuq va kamchiliklarni bir qaraganda biladi. Lekin bugun borgan joyiga bir qarab, faqat yuzadagi ko'pikni ko'rib kelayotgan jurnalistlar ham ko'p-da. Go'sht kombinati bilan bog'lik shikoyat ishiga qanday yondashganingiz esingizdami?

- Adashmasam, bir kunda bir tonnaga yaqin o'g'irlik fosh bo'lgandi o'shanda. Go'sht kombinatlaridan biridan shikoyat xati tushdi, bordim. Hisobotlarni qarab chiqarkanman, qo'shib yozish mavjudligini tushundim. Direktorga bu haqda hech narsa demadim, xayrlashib, ketdim. Kechga tomon ichki ishlar xodimidan birini olib, kombinat eshigi yonida turdik. U tashkilotdan chiqayotgan har bir mashinani to'xtatdik. Har birida uch-to'rt kilo go'sht bor edi. Oxirida avto-bus chiqdi, uning o'rindiqlarida odamlardan ko'ra, xaltalarda go'shtning kilosi ko'proq edi. Shu tariqa bu korxonadan bir kunda bir tonnadan ortiq go'sht o'g'irlanayotganini aniqladik. Keyingi jarayon bilan ichki ishlar mutasaddilari shug'ullanishdi.

Siz rahbarlik qilgan davrda ham, undan oldin ham jurnalistlarga tazyiq doimo bo'ldi. Lekin bu jarayonlarga, bir nechta jurnalistlarni sudga berishganida ham o'zingiz turib berganingizni o'sha paytlar ko'pchilik tushunmagandi. Ammo vaqt o'tib, bu dovyuraklik salmog'ini anglashdi, deb o'ylayman.

- Bu davrda jurnalistlarning asosiy suhbat mavzui o'sha paytdagi jarayon, yozilayotgan maqolalar va ularning taqdiri bilan bog'liq bo'lardi. Bitta tanqidiy maqola uchun kezi kelganda barchamizni "surishtirib" qolishardi. Yaqin qarindoshlarimiz, ularning ishiga soya solish bilan qilgan tahdidlarini aytmaydizmi. Jamoadagi birdamlik, halollik o'z so'zini aytardi shunday kezlarda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalistlar - Sulaymon Husainov hamda Farmon To-

shevning gazeta faoliyati bilan bog'liq bu dialogi samimiy uchrashuvdagi suhbatlardan bir parchagina, xolos.

Suhbatni tinglarkansiz, jurnalistika bugun tamoman o'zgardi, masalaga yondashuvdan tortib, uni auditoriyaga uzatishda ham ilgariyidan farqli jihatlarda juda ko'p ekanligini anglaysiz. Bugun bu haqiqatni tan olmay ilojimiz yo'q. Ammo jurnalistikaning tub mohiyati: odamlarga axborotni yetkazishda xolislik va adolatlilik prinsipi uning hech o'zgarmas qonuniyatlaridan biridir. Sulaymon Husainov aynan mana shu prinsipga sodiq qoldi. Eh-he, faoliyati davomida unga qancha bosimlar bo'ldi, tazyiqlar uyushtirildi. U hammasini halollik bilan yengdi, bilim va tafakkuri g'olib chiqdi mudom. Rostdan ham, qayerga bormasin, hisobotlardagi kamchiliklarni bir qarashda fahmlar, soha xodimlarining halol yo pokligini bir qarashda tushunib olardi. "Zarafshon" gazetasida ishlagan yillarida qishloq xo'jaligi va iqtisod sohasini yoritgan uchun shu tizimni yaxshiroq o'zlashtirish uchun alohida dars oldi, hatto fermer xo'jaligida ishladi, qishloq xo'jaligini ich-ichiga kirib o'rgandi. Bu o'rganganlari yozganlarida manaman, deb ko'zga tashlandi.

Uchrashuv asosiy mohiyatini yo'qotdi, deganimda, O'zbekiston jurnalistlari uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Akram Haydarov va uyushma a'zolaridan iborat ixchamgina davra aslida Sulaymon Husainovning 75 yoshligi sabab to'planishgandi. Davradagi suhbat cho'g'i esa uchrashuv qahramoniga maqtovlar yog'ilish bilan emas, sohaning o'tmishi, buguni haqidagi suhbatlar bilan qo'r oldi, atrofdagilarga kuch berdi. Bugun bir-ikkita shov-shuvli maqolasi bilan tanilib, erta unutilayotgan vaziyatlar ko'p uchrayotgan jamiyatda o'tgan asrning 70-90-yillarida ijod etgan jurnalistning suhbatini jon qulog'i bilan tinglash, u kishidan ibrat olishga intilish - aslida 75 yoshli jurnalistning baxti shunda emasmi?

Kamtar, halol bu inson bugun ham Jomboy tumanining G'azira qishlog'ida istiqomat qiladi. Ehtimol, atrofdagilari haligacha bu qishloqda sohaning noyob gavhari yashayotganidan bexabar bo'lishsa kerak.

Gulruh MO'MINOVA.

"Un qimmat bo'lib ketdi, bir xaltasini 350 ming so'mga olib keldim..."

Tandiriga non yopiladigan qishloqlarda ayrim kishilarning shu kabi nolishlarini eshitib qolamiz. Na chora, bozor iqtisodiyoti-da, narxni talab va ehtiyoj belgilaydi. Qolaversa, bug'doy yetishtirilib, uni tegirmonda yan-chilguncha bo'ladigan jarayonlar ozmuncha xarajat, mashaqqatli mehnat talab qilmaydi. Qimmatmi, qimmat!

Endi savol tug'iladi. Xo'sh, un qimmat ekan, nonni isrof qilmay, tejab, ehtiyojga yarasha iste'mol qilyapmizmi? Afsuski, bu savolga "ha", deb javob berolmaysiz, isrofgarchilik bor. To'g'ri, to'y-marosimlarni ixcham, kamchiyim qilib o'tkazish haqidagi parlament tavsiyalari jamoatchilik fikri, targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotgani natijasida isrofgarchilik biroz qisqardi. Ammo batamom chek qo'yilgani yo'q. Negadir bir odatga o'rganib qolganmiz, to'ylarda, o'tirishlarda dasturxonning nonni sindirib qo'yamiz, ehtiyojimizga yarasha o'zimiz sindirib yemaymiz, andisha qilamiz. Oqibatda dasturxon-dasturxon siniq non qoladi. Uni "sarqit" hisoblab, hech kim yemaydi, yana uvul bo'lmasin, deb iivitib molga berishadi.

Bu fikrlarimiz kimlargadir erish tuyular, "shu ham gap bo'ldimi?", deguvchilar topiladi. Ammo mohiyatiga chuqurroq nazar tashlasak, non insoniyatning buyuk kashfiyoti. Nonsiz yashab bo'lmaydi. O'tmishdagi ocharchilik, qahatchiliklarni qo'yaturaylik, mustaqilligimizning ilk yillaridagi tahlikali kunlarni eslaylik: non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini navbatda turib, "talon" bilan olgandik. Bunga o'ttiz yildan oshyapti. Buni ho-

Ushog'ini ham uvul qilmay, ko'zga surting



zirgi yosh avlod ko'rmagan, bilmaydi. Ko'rmasin, bilmasin ham. Ammo yoshi ulug'lar ularga eslatib turishi kerak. Hozirgi kunda-gidek farovon, to'kin-sochin zamon hech qachon bo'lmagan. Dasturxon noz-ne'matga to'la. Unga qarab, kattalar ham kechagi non tanqisligi kunlarini unutib qo'yadi. Bunday bo'lmasin, deb iivitib molga berishadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzi aholisi soni 8 milliard-dan oshdi va turli ijtimoiy-iqtisodiy inqozlar ko'lami kengaymoqda. Dunyoda 1 milliarddan ziyod kishi to'yib ovqatlanmaydi, yuz millionlab bolalar ochlikka mahkum. BMT jahon mamlakatlarini oziq-ovqat xavfsizligini ta'min-

Qadimda ommanning jamiyat taraqqiyotiga xavf solishidan qo'rqqan Rim imperatorlari turli xil shou-tomoshalar uyushtirishga urg'u berishgan. Ya'ni, "Kolizey"da gladiatorial jangini uyushtirib, 150 kunlab shou-tomoshalar tashkil etishgan. Chunki ularning maqsadi omma dunyoqarashini shakllantirish yoki jamiyat taraqqiyotini isloh qilish emas, balki ma'nan majruh avlodni yetishtirish va ularni Rim imperiyasining bo'lajak qo'riqchisi sifatida tarbiyalashdan iborat edi.

YOSHLARNI YOT G'OYALAR TA'SIRIDAN HIMOYA QILISH

BIZ, KATTALARNING VAZIFASI



Bugun erkinlik, demokratiya niqobi ostida milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimizga zid "ommaviy madaniyat" unsurlari yoshlarimiz ongiga zimdan singdirilyapti, buni xuddi o'sha Rim imperatorlari qo'llagan usullarga o'xshataman.

Buning oqibatida yoshlarimizning aksariyatida milliy madaniy qadriyatlarimizni o'zlashtirishga bo'lgan intilish susayib, G'arb mamlakatlari turmush tarzi, axloqiy qarashlariga qiziqish kuchaymoqda. Mantiqsiz shou-tomoshalar tashkil etayotganlar ajdod-

lari qoldirgan aqidalar, an'analardan uzoqlashayotgan yoshlardan samarali foydalanyapti, yoshlar ongida moddiy manfaatdorlikka bo'lgan intilish kuchaymoqda.

Shu sababli kasb-hunar maktabimizda tahsil olayotgan yoshlarning xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish, ongida mamlakat taqdiriga daxldorlik, mehnat, ijodkorlik, yaratuvchanlik hisini shakllantirish, bilimni qadrlashga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Bular asosida o'quvchi-yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalari hosil bo'lyapti. Ular xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini bilan tanishtirilyapti. Xatti-harakatlari va intilishlarida axloqsizlik, "ommaviy madaniyat"ga moyillik kuzatilganda bunga qarshi kurashish metodlari qo'llanmoqda.

D. MUHAMMADIYEV, Kattaqo'rg'on shahar kasb-hunar maktabi direktori o'rinbosari.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

12-MAY

Hamdam BERDIYOROV - (1918-1984) Paxtachi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan maorif xodimi, tilshunos olim.

13-MAY

Vohid ABDULLAYEV - (1912-1985) Samarqand shahrida tug'ilgan. Adabiyotshunos. Akademik.

14-MAY

Sharif AZIMOV - 1954-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Kulol. O'zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy a'zosi.

Toshpo'lat SAFAROV - 1953-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Texnika fanlari doktori, professor.

Mulohaza uchun mavzu

lash choralarini ko'rishga chaqirayotganiga qaramay, qashshoq mamlakatlar mavjud. Bunga qurg'oqchilik, kasalliklar, tabiiy ofatlar, notinchilik, o'zaro urushlar ham sabab bo'lyapti. Ochlikdan qutulish uchun qanchadan-qancha fuqarolar yurtini tark etib, qochqinga aylanyapti. Boshpanasiz, bir burda non ilinjida jonini xatarga qo'yib, darbadarlikka yuz tutishyapti.

Biz ozod yurtda yashayotganimiz, yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ortimizda, to'q va farovon hayot kechirayotganimiz uchun Allohga beaded shukurlar aytishimiz kerak. Ahil, inoq, ter to'kib mehnat qilsak, hali hayotimiz bundan-da farovon bo'ladi! Farovonlikka esa iqtisodiy tejankorlik, moddiy va ma'naviy boyliklar, yer, suv, tabiatni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash bilan erishish mumkin.

Tiriklikning asosi - non. Uning ushog'ini ham uvul qilmay, ko'zga surtaylik. Ba'zan restoranlar, turarjoylardagi chiqindixonalarda non burdalari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari qoldiqlariga ko'zimiz tushadi. Bu katta gunoh, Yaratganga xush kelmaydigan isrofgarchilik. Bir burda nonga zor qilishdan O'zi asrasin.

Nonning aziz ne'matligi, uning uvog'i ham non ekanligini avvalo, oilada bolalar ongiga singdiraylik. Ular nonning inson hayotidagi ahamiyatini, nechog'lik azizligini yoshlikdan amlab yetsin. Bog'cha, maktablarda nonga bag'ishlangan ko'rgazmali tadbirlar muntazam o'tkazilib turilishi maqsadga muvofiq. Bu tadbirlarda o'quvchilar non haqidagi etaklar, rivoyatlarni sahna talqinida ijro etishsa, ularning bu ulug' ne'matga bo'lgan mehri oshadi.

Top'aymurod SHOMURODOV.

Yonimizdagi odamlar

Birovkim, qilsa olimga ta'zim

Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim

Ushbu fikrlar so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lib, hazrat olimlik pog'onasini juda yuqori darajaga qo'yadi. Darhaqiqat, insonning umri necha yil yashaganligi bilan emas, balki umri davomida amalga oshirgan ezgu amallari va kelgusi avlod, Vatani uchun qoldirayotgan ilmiy hamda ma'naviy boyligi bilan o'lchanadi.

Veterinariya fanlari doktori Otamurod Qo'ldoshev mana shunday olimlar sirasiga kiradi.

Otamurod O'rozovich 1963-yil 10-mayda Payariq tumanida tavallud topgan. 1985-yilda Samarqand qishloq xo'jalik instituti-ning veterinariya fakulteti-ga o'qishga kirdi. 1990-yil institutni tugatib, O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida faoliyat boshladi.

1990-1993-yillarda institutning vetsanitariya va urchitish patologiyasi laboratoriyasida katta laborant, kichik ilmiy xodim vazifalarida ishladi. Aspiranturani yakunlab, veterinariya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. 1996-2001-yillarda institutning protozoologiya laboratoriyasida katta ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritdi. 2001-yildan hozirgi kungacha veterinariya ilmiy-tadqiqot institutning vetsanitariya va urchitish patologiyasi laboratoriyasi mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Otamurod Qo'ldoshev ko'p yillik ilmiy ishlar, olib borgan tadqiqot natijalari asosida 2022-yilda doktorlik (DSc) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, veterinariya fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi.

Domla bugun ko'plab



yoshlarga ustozlik qilib, ularning ilmiy izlanishlariga ko'mak bermoqda. Hozirda uch nafar tayanch doktorant (PhD) va ikki nafar mustaqil tadqiqotchiga rahbarlik qilmoqda. Faoliyati davrida bir qator monografiya, tavsiyanoma, qo'llanma, mualliflik guvohnomalariga ega bo'ldi. Ustozning 160 dan ortiq ilmiy maqolalarining bir nechtasi xorijiy davlatlarda chop etilgan.

Otamurod O'rozovichni muborak 60 yoshi bilan tabriklab, u kishiga ijodiy yutuqlar, uzoq va sarmazmun hayot, sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat tilaymiz.

Bozorboy ELMURODOV, veterinariya fanlari doktori, professor.

MATBUOT UYI
Zarafshon
С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 630 nusxada chop etildi. Buyurtma 251. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2
Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: **A.SHERXOLOV.**
Navbatchi: **Y.MARQAYEV.**
Sahifalovchi: **B.ABDULLAYEV.**

ISSN-201667X
9 1772010667009
Sotuvda narxi kelishilgan holda